

**INGLIZ TILIDA MODAL FE'LLAR.*****Yunusova Dilbarxon Muxtorjon qizi******Farg'onan Davlat Universiteti******Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi******1-kurs 24.108-guruh talabasi***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilidagi modal fe'llar haqida so'z boradi. Ularning ingliz tilidagi ahamiyati, turlari, ishlatalishi kabilalar yoritib ketilgan. Bundan tashqari, modal fe'llarning nutqdagi o'rni haqida ham to'xtab o'tiladi.

**Annotation:** This article discusses modal verbs in the English language. It highlights their importance, types, and usage in English. Additionally, the role of modal verbs in speech is also addressed.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются модальные глаголы в английском языке. Освещается их значение, виды и использование. Кроме того, затрагивается роль модальных глаголов в речи.

**Kalit so'zlar:** modal fe'l, o'tmish zamon shakllari, inkor gap, grammatick vosita, yordamchi fe'l, qobiliyatni ifodalovchi modal fe'llar.

**Keywords:** modal verb, past tense forms, negative sentence, grammatical tool, auxiliary verb, modal verbs expressing ability.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются модальные глаголы в английском языке. Освещается их значение, виды и использование. Кроме того, затрагивается роль модальных глаголов в речи.

**Kirish.** Modal fe'l – bu maxsus yordamchi fe'l bo'lib, asosiy fe'lga turli ma'no qo'shadi va harakat yoki holatning ehtimolligi, majburiyati, ruxsat etilganligi, qobiliyati yoki maslahat berish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Ular mustaqil ishlatilmaydi, balki har doim boshqa fe'l bilan birga keladi va uning ma'nosini aniqlashtiradi.

Ingliz tilida modal fe'llar turli ma'nolarni ifodalash uchun ishlataladi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Qobiliyatni ifodalovchi modal fe'llar

Can – hozirgi va umumiyligida qobiliyatni bildiradi (I can swim – Men suza olaman).

Could – o'tmishda mavjud bo'lgan qobiliyat yoki nazokat bilan iltimos berishda ishlataladi (When I was a child, I could run fast – Men bolaligimda tez yugura olardim).

2. Majburiyat va zaruriyatni ifodalovchi modal fe'llar

Must – kuchli majburiyat yoki ehtiyojni bildiradi (You must wear a seatbelt – Sen xavfsizlik kamarini taqishing kerak).

Have to – majburiyatni bildiradi, lekin u tashqi sabablar tufayli kelib chiqadi (I have to wake up early for work – Ishga ertalab turishim kerak).

Need to – zaruriyatni bildiradi (You need to see a doctor – Senga doktorga ko‘rinish kerak).

### 3. Ehtimollik va taxminni bildiruvchi modal fe’llar

May, might – ehtimollik darajasi past bo‘lsa ishlatiladi (It might rain later – Keyin yomg‘ir yog‘ishi mumkin).

Must – kuchli ishonch bilan aytilgan taxminlar uchun ishlatiladi (He must be at home – U albatta uyda bo‘lishi kerak).

Can’t, couldn’t – biror narsaning imkonsizligini bildiradi (He can’t be at home – U uyda bo‘lishi mumkin emas).

### 4. Ruxsat va taqiqlarni bildiruvchi modal fe’llar

Can, may – ruxsat so‘rash yoki berish uchun ishlatiladi (May I come in? – Kirishim mumkinmi?).

Must not (mustn’t) – qat’iy taqiqni bildiradi (You mustn’t smoke here – Bu yerda chekish mumkin emas).

Can’t – norasmiy taqiqni bildiradi (You can’t park here – Bu yerda mashina qo‘yish mumkin emas).

### 5. Maslahat va tavsiyalar uchun modal fe’llar

Should, ought to – maslahat yoki tavsiyani bildiradi (You should eat more vegetables – Ko‘proq sabzavot yeyishing kerak).

Had better – muhim tavsiyalar va ogohlantirishlar uchun ishlatiladi (You had better leave now – Endi jo‘naganing yaxshi bo‘ladi).

### 6. Majburiyatning yo‘qligi yoki zarur emasligini bildiruvchi modal fe’llar

Don’t have to, don’t need to – majburiyatning yo‘qligini bildiradi (You don’t have to come early – Erta kelishing shart emas).

Needn’t – biror ishni qilish majburiy emasligini bildiradi (You needn’t bring anything – Hech narsa olib kelishing shart emas).

Modal fe’llarning qo‘llanilishi.

1. Savol va inkor gapda ishlatilishi: Modal fe’llar yordamchi fe’llar kabi ishlaydi, shuning uchun ulardan keyin "do" yoki boshqa yordamchi fe’llar ishlatilmaydi (Can you help me? – Menga yordam bera olasanmi?; He can’t swim – U suza olmaydi).

2. O‘tmish zamon shakllari: Modal fe’llarning ba’zilari o‘tmishda quyidagi tuzilmalar bilan ishlatiladi:

Could – o‘tmishdagi qobiliyat uchun (I could run fast when I was young).

Must have + past participle – o‘tmishdagi taxminlar uchun (He must have left early – U erta ketgan bo‘lsa kerak).

Should have + past participle – o‘tmishda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan, lekin amalga oshmagan ishlar uchun (You should have called me – Menga qo‘ng‘iroq qilishing kerak edi).

XULOSA. Modal fe’l – bu yordamchi fe’l bo‘lib, asosiy fe’lga turli xil ma’no qo‘sadi va harakatning ehtimolligi, majburiyati, qobiliyati yoki ruxsat etilganligini bildiradi. Modal fe’llar odatiy fe’llardan farqli ravishda o‘zgarmaydi, ya’ni zamon yoki shaxsga qarab -s, -ed, yoki -ing qo‘sishimchalarini olmaydi.

Modal fe’llardan keyin har doim to holda bo‘lmagan infinitive (asosiy fe’lning boshlang‘ich shakli) keladi.

Modal fe’llar savol va inkor gaplarda qo‘sishimcha yordamchi fe’l ishlatmasdan bevosita qo‘llaniladi.

Modal fe’llar nutqqa noziklik qo‘sadi va aniq talab, maslahat, ruxsat yoki taxminni ifodalash uchun ishlatiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Barxudarov L. S, Shteling D. A, “Grammatika angliyskogo yazika”. 1973.
2. Bo‘ronov J, Bo‘ronov M, Tashbayeva M “Ingliz tili grammatikasi”. Toshkent – 1978.
3. Maxmudov N, Nurmatov A, “O‘zbek tilining nazariy grammatikasi”. Toshkent – 1995.
4. Mirzayev M, Usmonov S, Rasulov I “O‘zbek tili”. Toshkent 1978.
5. Raymond Murphy. “English Grammar in USE. A self-study reference and practise book for elementary level”. Cambridge University Press 1985.
6. <https://cyberleninka.ru>